

SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Yakubova Muattar Toxirovna

Yakubova_m@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada soliq risklarining mohiyati, yuzaga kelish sabablari, soliq xavfi darajalarini belgilash, soliq to‘lovchilarni segmentlash, soliq xavfini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Soliq risklari tadbirkorlik sub’ektlari va soliq organlari nuqta’i nazaridan baho berilgan. Soliq risklarini kamaytirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan tadqiqot metodlari berilgan. Bunda tashqari soliq riskining zamonaviy tushunchasi va turlari hamda korxonalarda ularni boshqarishning ob’ektiv zarurligi, shuningdek, bu boradagi ilg‘or xorij tajribasi va amaliyoti keltirilgan. Tahlillar orqali soliq risklarini bashqarish bosqichlari, risklarni tahlil qilish asosida nazorat ob’ektlarini aniqlash tartibi, soliq riskini aniqlashda foydalilaniladigan manbalar o‘rganilgan. Tahlillar asosida tegishli xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: soliq risklari, soliq yuki, soliq to‘lovchilar, soliq siyosati, soliq ma’murchiligi, soliq maslahatchilari, soliq xavfi mezonlari, soliq xavfi darajasi, soliq xavfi tahlili, soliq nazorati riski, moliyaviy jarimalar riski.

Annotation: the article covers the essence of tax risks, causes of occurrence, determination of tax risk levels, segmentation of taxpayers, analysis of tax risks. Tax risks are assessed from the point of view of business entities and tax authorities. The focus is on tax risk reduction issues. Research techniques used in the research process are given. In addition, it presents the modern concept and types of tax risk and the objective need to manage them at enterprises, as well as advanced foreign experience and practice in this regard. Through the analysis, the stages of tax risk prediction, the procedure for determining control objects based on risk analysis, the sources used in determining tax risk have been studied. Based on the analysis, relevant conclusions and suggestions have been cited.

Keywords: tax risks, tax burden, taxpayers, tax policy, tax administration, tax consultants, tax risk criteria, tax risk level, tax risk analysis, tax control risk, financial penalty risk.

KIRISH

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar berilishi bilan bir qatorda yuzaga kelayotgan soliqlar bilan bog‘liq risklar va ularni boshqarish xam bir tomondan, tadbirkorlarni faoliyatini himoya qilish va ikkinchi tomondan, davlat byudjeti daromadliligi uzluksizligini ta’minlash nuqta’i nazaridan

o‘z dolzarbligini saqlamoqda. Prezidenti ta’kidlaganidek: “Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur”.¹ Davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyatichiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi to‘g‘risidagi Farmonda: iqtisodiyotda soliq yuki darajasini kamaytirish, shuningdek soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va barqarorligini ta’minlashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan to‘lanadigan soliqlar nechog‘lik ahamiyatli bo‘lsa, mazkur soliqlarni muntazam, o‘z vaqtida va to‘liq byudjetga kelib tushishini ta’minlash maqsadida, korxonalarda soliq risklarini boshqarish ham shu darajada muhimdir. Korxona tomondan coliq riski - soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlarini bajarishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va soliq to‘lovchilarning moliyaviy yo‘qotishlariga sabab bo‘luvchi xavf hisoblanadi. Soliq xizmati organlari tomonidan soliq riski – soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmaslik ehtimoli sifatida baholanadi. Ya’ni bunda xavf sifatida soliq to‘lovchilarning soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq byudjetga to‘lamasliklari tushuniladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq risklari bo‘yicha tadqiqotlar o‘rganilganda bu borada turli xil yondashuvlarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar o‘z ilmiy ishlarida “iqtisodiy tabiatni o‘zgartiruvchi ikki omil – samaradorlik va risklar”ga alohida e’tibor qaratgan. Moliyaviy natija va pul oqimlari miqdorida soliq risklari tufayli salbiy holat yuzaga kelsa, bu holatni soliqlarni boshqarish borasida samarasiz qarorlari bilan izohlash mumkin.

Ba’zan soliq risklari sifatida yangi soliq to‘lovlarning amalga kiritilishi, to‘lov shartlari va stavkalarining o‘zgarishi, soliq imtiyozlarining bekor qilinishi bilan paydo bo‘ladigan tashqi risklar tushuniladi. Soliq risklarining paydo bo‘lishi ichki omillarga ham bog‘liq bo‘lib, “soliq riski soliq qonunchiligidagi noqulay o‘zgarishlar bilan bog‘liq yoki soliq to‘lovlarini hisoblash vaqtida yo‘l qo‘yilgan xatolar bilan bog‘liq

¹ Z.O.Axrarov, Sh.O.Shermamatov. Soliq munosabatlari tartibga solish sharoitida soliq risklarini boshqarish yo‘llari. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnal, 1-son, 2020 yil.

moliyaviy yo‘qotish sifatida baholanadi”. Lekin soliq risklari bo‘yicha ichki omillar faqatgina soliq xatolari bilan chegaralanmaydi.

Soliq riskiga birmuncha kengroq ta’rif V.N.Evstigneev tomonidan taklif etilgan bo‘lib, “konkret soliq to‘lovchi uchun soliqqa tortish sohasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan noqulay oqibatlarni baholash” soliq riski sifatida aks ettiriladi, lekin bu mulohaza soliq sanksiyasi qo‘llanilishi bilan bog‘lanadi.²

Boshqa tomondan soliq risklarini aniqlashda soliq sanksiyalaridan tashqari moliyaviy yo‘qotishlar ham bo‘lishi mumkinligi haqida D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar alohida to‘xtalib, bunda “soliq riski pul ekvivalentida aks etadigan soliqlarni to‘lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog‘liq yo‘qotish” sifatida tushuntiriladi.

Iqtisodchi olim Garbarino fikriga ko‘ra, soliqlar korxonalar uchun jiddiy xarajat hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarni kamaytirish daromadlilikni oshiradi. Soliqlar boshqa operatsion xarajatlar kabi kamayishi mumkin bo‘lgan boshqariladigan xarajatdir. Korxonalar miqyosida soliqlar bo‘yicha pul oqimlarini boshqarishning ahamiyatini soliqlar va majburiy ajratmalarni tejash orqali xo‘jalik sub’ektlari iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda o‘z aksini topadi. «Korporativ soliq menejmenti – korxona va tashkilotlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, soliq to‘lovchi tomonidan soliq yukini kamaytirishning qonuniy vositasidir»

Maxsus adabiyotlarda soliq riski tushunchasining terminologik asoslari yo‘qligi soliq risklarini baholashning nazariy asoslarini turli xil nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq qilib qo‘yadi. Ba’zan soliq risklarini tashkil etuvchi tashqi jihatlar alohida olinib, soliq riski sifatida yangi soliq to‘lovlarining amalga kiritilishi, to‘lov shartlari va stavkalarining o‘zgarishi, soliq imtiyozlarining bekor qilinishi va boshqa shu kabilar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ladigan risklar tushuniladi.

Biroq, shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, soliq risklarining paydo bo‘lishi nafakat tashqi, balki qator ichki omillarga ham bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi mumkin. Soliq xatolari sifatida shunday ichki omillarni ham hisobga olganda “Soliq riski, - izohlaydi Filin, - soliq qonunchiligidagi noqulay o‘zgarishlar bilan bog‘liq yoki soliq to‘lovlarini hisoblash vaqtida yo‘l qo‘yilgan xatolar bilan bog‘liq moliyaviy yuqotish sifatida baholanadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamikada o‘rganish, ma’lumotlarni guruhlash, ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda internet

² Mamadaminov Nazar Yusupovich. Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil. – 9 bet.

tarmog‘idagi rasmiy saytlardan olingen ikkilamchi ma’lumotlardan ham foydalanildi. Mazkur ma’lumotlar asosida korxonalarda soliq risklarini boshqarish zarurati va ahamiyati, shuningdek ilg‘or xorij tajribasiga tayangan holda ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz korxonalarida qo‘llash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, soliq xizmatlari o‘zining faoliyati davomida soliq risklarini boshqarish zaruratiga to‘qnash keladilar, bu o‘z navbatida soliq tizimining barcha darajalarida risk boshqaruvining samarali jarayonlarini yaratishni taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarning soliq idoralari tomonidan fiskal ahamiyati bo‘yicha risklarni maqbullashtirish, tartiblash va baholash uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tahlil shundan dalolat beradiki, alohida davlatlarning soliq organlari tomonidan tizimli va kompleks asosda risklarni soliq monitoringdan o‘tkaziladi.

Eng avvalo soliq risklarini boshqarish tushunchasining zamonaviy ta’riflaridan biriga to‘xtalsak, soliq risklarini boshqarish – bu ijobiy yoki salbiy natija kelib chiqishini prognozlash va risk darajasini oldindan pasaytirishga chora ko‘rishdir. Soliq riski moliyaviy yo‘qotishlarni ifodalovchi ehtimoliy ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Soliq risklarini tadqiq qilishda bir qancha e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar mavjud. Xususan, soliq risklari amalda korporativ moliyaviy boshqaruv tizimida jiddiy e’tibor talab qiladi va yuzaga keladi. Shunday ekan, soliq risklari har qanday moliyaviy operatsiyani amalga oshirishda hisobga olinishi lozim. Bizning nuqtai nazarimizcha, moliyaviy boshqaruv doirasida xo‘jalik sub’ektlarini soliqqa tortish borasida faoliyat sohasi bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar sifatini baholash nafaqat moliyaviy natijalarni va moliyaviy holatni barqarorlashtirish maqsadida pul oqimlarini maksimallashtirishga hamda tashkilotning bozor qiymati oshganligi bilan, shuningdek faoliyat yuritish davomida risklarni kamaytirishga erishilganligida ham namoyon bo‘lishi kerak.³

Xozirgi paytda soliq riskini aniqlash mezonlari tanlangan va maxsus elektron dasturlarga kiritilgan. Ularda belgilangan mezonlarga soliq to‘lovchilar ma’lumotlarning mos kelishiga qarab risklilik darjasini belgilanadi va bu soliq nazoratini tanlashga asos bo‘ladi.

Bu holat amaliyotda ishlatilganda ko‘pgina muammolarni keltirib chiqarayotganligiga qaramay soliq tizimini raqamlashtirish va inson omilini cheklashga xizmat qilmoqda. Soliq riskini boshqarishda soliq xavfi darjasini aniqlash muhimdir. Bu riskning yuzaga kelishining ehtimoli va u olib kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlari miqdori sifatida baholanadi. Keyingi bosqich soliq xavfini tahlil qilishdir.

³Elmirzaev, S. E. (2017). Improving tax relations in corporate finance management. Abstract of dissertation in economic sciences. Tashkent.

Bunda soliq organlarida mavjud ma'lumotlardan xavfning yuzaga kelishi holatlari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni identifikatsiyalash va soliq to'g'risidagi qonun hujjaligiga rioya etmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni baholash uchun tizimli foydalaniladi. Tadbirkorlik sub'ektlarini segmentlash bosqichi soliq nazorati shakllarini tanlash maqsadida tadbirkorlik sub'ektlarining muayyan davrdagi iqtisodiy ko'rsatgichlariga qarab guruhlarga ajratishni nazarda tutadi.⁴

Soliq risklarini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- ✓ sayyor soliq tekshiruvlari, kameral tekshiruvlari va soliq auditni rejalashtirishning yagona tizimini yaratish;
- ✓ tadbirkorlik sub'ektlarining soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha savodxonligini oshirish;
- ✓ soliq majburiyatlarini ixtiyoriy va to'liq bajaradigan soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish orqali davlat daromadlarining o'sishini ta'minlash; yashirin iqtisodiyot sohasida ishlaydigan soliq to'lovchilar sonining kamaytirish;
- ✓ soliq huquqbazarligi sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, "soliq xavfini tahlil qilish" natijalari asosida tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan soliq tekshiruvi tashabbusi bilan chiqish;
- ✓ soliq organlarining mavjud kadrlar resurslaridan kelib chiqib soliq nazoratini soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar va ustivor iqtisodiy faoliyat sohalariga qaratish;
- ✓ soliq xavfini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lagini qisqartirish;
- ✓ soliqqa oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish.⁵

Rivojlangan davlatlarda soliq riskini baholash soliq monitoringi mavjud. Soliq monitoringining eng rivojlangan va ochiq tizimlaridan biri Avstraliyada mavjud. Avstraliya soliq xizmati har yili soliq ma'murchiligi tizimining adekvatligini baholash jarayoni orqali riskni boshqarish tizimini amalga oshiradi.

Bu ishning natijasi har yili nashr etiladigan soliq to'lovchilarning ma'lum bir segmentiga va soliq ma'murchilining alohida yo'nalishlariga nisbatan soliq nazoratining asosiy muammolarini o'z ichiga oladigan "Soliq intizomini baholash dasturi" hisoblanadi.

Avstraliyaning soliq intizomini baholovchi dasturi soliq to'lovchilarning turli segmentlari bo'yicha tashkil etilganligini quyidagi 2-rasm orqali ko'rshimiz mumkin.

⁴ Кирина Л.С. Международный опыт осуществления мониторинга налоговых рисков налоговыми органами. Экономика. Налоги. Право. - М. 2012.

⁵ Samariddin Elmiraev. Tax Risk Assessment and Management in Private Sector: Evidence from Uzbekistan. // European Journal of Business and Management, Vol.7, No.29, 2015

Soliq risklari ro‘yxati har yili nazorat tadbirlari natijalari monitoringini, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarni va undagi aniqlangan tirqishlarni bartaraf etilganligini, shuningdek soliq maslahatchilari xizmatining muntazam kuzatilishi va axborotni majburiy oshkor etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari doirasida “noqonuniy soliq sxemalari” potensial provayderlardan olinadigan axborotlar asosida o‘tkaziladigan soliq rejorashtirishning tendensiyalarini hisobga olingan holda ko‘rib chiqiladi.

Fikrimizcha, Avstraliya tajribasini amaliyotda qo‘llash joiz va davlat soliq xizmati organlari tomonidan mumkin bo‘lmagan soliq sxemalarini ochiq nashr etish kerak. Bu birinchidan soliq to‘lovchilarning soliqlarni maqbullashtirishdagi noqonuniy instrumentlardan foydalanishga moyilligini pasaytirishga olib kelsa, ikkinchidan soliqlarni rejorashtirishning qonuniy doirasini yaratishga imkon beradi.⁶

Avstraliyadan tashqari xuddi shunday tizimlar Buyuk Britaniyada, Yangi Zelandiyada va AQShda amal qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining materiallari tahlili va chet el davlatlari soliq idoralarining nashrlari fiskal organlar to‘qnash keladigan asosiy “soliq riski zonalari”ni alohida ko‘rsatishga imkon beradi.

Soliq riskini baholash tizimi ko‘p tomonlama hisoblanadi va soliq idoralarining tashkiliy va operatsion tuzilmalaridan kelib chiqqan holda turli jihatlari ko‘rib chiqilishi mumkin. Ayrim davlatlar risklarni soliq to‘lovchilarning alohida segmentlarga ajratadi (jismoniy shaxslar, kichik va o‘rta biznes, yirik korxonalar, yirik daromadga va salmoqli mulk qiymatiga ega jismoniy shaxslar), boshqalari esa risklarni – soliqlarning rejorashtirish instrumentlaridan foydalashning qonuniyligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi (ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlardan foydalanish – soliqlarni maqbullashtirishning qonuniy usuli, biroq, byudjet uchun yuqori darajadagi soliq riski bilan; daromadlar va mulklarni deklaratsiya qilmaslik – soliqlarni maqbullashtirishning noqonuniy usullari).⁷

Rivojlangan davlatlardan biri AQSh soliq idoralari faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu shuni ko‘rsatdiki, AQShning ichki daromadlar xizmati tomonidan quyidagi ikki asosiy muammolarni hal qilish bo‘yicha oxirgi yillar davomida jiddiy qadam quyilgan. Birinchisi soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan a’lo natjalarga olib keladigan AQSh Soliq kodeksidagi kamchiliklarga asoslangan keng tarqalgan soliq solishdan bo‘yin tovlash sxemalaridan foydalangan kompaniyalarga bog‘liq muammodir. Bu sxemalar auditorlik va yuridik kompaniyalar, moliyaviy maslahatchilar va professional soliq maslahatchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Ikkinchi muammo, aksariyat hollarda jismoniy shaxslar bilan bog‘liq, ya’ni, daromadlarni noqonuniy yashirish va sun’iy xarajat va zararlar paydo qilish sxemalari bilan bog‘liqdir. Odatta ular ofshor kompaniyalardan foydalanishni ehtimol qiladilar⁸.

⁶ Avstraliya soliq boshqarmasi materiallari - <http://www.ato.gov.au>

⁷ Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma’lumotlari - <http://www.oecd.org>

⁸ AQSh ichki daromadlari xizmatining materiallari - <http://www.irs.ustreas.gov>

Rossiya Federatsiyasida internet so‘rovlari orqali amaliyotda ko‘p uchraydigan soliq riskining tarkibiy qismi hisoblangan moliyaviy yo‘qotishlar sababchisi bo‘lgan soliq xatolarini baholash o‘tkazilgan. Unda korxonalarning buxgalteriya bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadigan 55 ta xodimi ishtirok etgan bo‘lib, birlamchi hujjatlarning yo‘qligi yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi hamda soliq qonunchiligidagi qaramaqarshiliklar va noaniqliklar bilan bog‘liq xatolar boshqa xatolarga nisbatan yuqori baholangan. Korxonalarda soliqlarni boshqarishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ichki soliq nazorati o‘tkazilishi bilan birga soliq tahlili ham o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda soliq risklariga ega bo‘lgan sub’ektlarga ko‘ra davlat, soliq to‘lovchilar, soliq agentlari, o‘zaro bog‘liq shaxslarning soliq risklari ajratiladi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarning tavakkalchiligi yuridik va jismoniy shaxslarning tavakkalchiligi uchun, davlat risklari esa soliqqa tortish jarayonida ishtirok etuvchi turli qonun chiqaruvchi va ijro yetuvchi hokimiyat organlari uchun batafsil tavsiflanishi mumkin.

Soliq risklarni belgilovchi omillar (paydo bo‘lish manbalar)ga ko‘ra tavakkalchiliklar tashqi va ichki turlarga bo‘linadi. Davlat uchun tashqi tavakkalchiliklar soliqqa tortish sohasidagi xalqaro shartnomalarning amal qilishi bilan bog‘liq; ichki tavakkalchiliklar - soliqqa tortish jarayonida davlat funksiyalarini bajaradigan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining, shuningdek soliq to‘lovchilarning faoliyati bilan bog‘liq.

Soliq to‘lovchilarning soliq tavakkalchilagini ko‘rib chiqishda noaniqlik manbalarini aniqlashda axborot tavakkalchiliklari, texnologik tavakkalchiliklar, ekologik xavflar va obro‘ga oid tavakkalchiliklarni ajratib ko‘rsatish kerak. Axborot tavakkalchiliklari deganda soliq hisob-kitoblarini amalga oshirish zaruratidan kelib chiqadigan noaniqlik tushuniladi (masalan, soliq to‘lovchi va soliq organi tomonidan qonunlarni noaniq talqin qilish xavfi). Jarayon tavakkalchiliklari soliq majburiyatlarini noto‘g‘ri bajarish, soliq hisobi yoki soliqni rejalashtirishdagi xatolar bilan bog‘liq xavflar guruhidir.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar hamda ilg‘or chet el tajrimasi va amaliyotidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiya va ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Rivojlangan mamlakatlarning soliq xizmatlari o‘z faoliyatlarini soliq risklarini kompleks baholash orqali amalga oshiradi. Risk boshqaruvi elementlariga asoslangan soliq monitoringi tizimi, soliqqa oid qonun hujjatlari va ma’murchiligidagi muammolarni, ularning boshlang‘ich bosqichlarida aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, fikrimizcha, axborotlarni oshkor etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilishi hamda soliq idoralalarining tashkiliy tuzilmasi va asosiy funksiyalarini soliq risklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni munosib boshqarish hisoblangan soliq

monitoringi maxsus bo‘linmalarini tashkil etilishi davlat soliq siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston sharoitida davlat soliq siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda, jumladan soliq risklarini aniqlagan holda ularni adolatli va munosib boshqarishda ilg‘or xorij tajribasida keng tatbiq etilib, qo‘llanilgan va chet el amaliyotida natijadorligi yuzasidan o‘z isbotini topgan samarali dastaklarni qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun soliq risklarini aniqlash va baholash, ularga ta’sir etish, ya’ni kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda soliq qonunchiligidagi munozarali holatlarni o‘rganib chiqish, mavjud risklar monitoringini olib borish, risklarning tasniflanishi va uning oqibatlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, soliq risklariga ta’sir etishda risklarni kamaytiruvchi usullarni ishlab chiqish, mavjud risklarni turli xil o‘xshash holatlar bilan solishtirish va maqbulini tanlash, risklarning kamayishini ta’minlovchi eng yaxshi va samarali usullarni amaliyotga joriy etilishi soliq risklarini boshqarishda sezilarli ijobjiy natijalarga olib keladi.

Soliq risklarini boshqarish masalalarini tahlil qilib, xulosa qilish mumkinki, respublikamiz soliq tizimi, xalqaro me’yorlar darajasida rivojlanish tomon bormoqda. Bu albatta o‘zining ijobjiy tomonlarni ko‘rsatadi. Aytish kerakki, soliq tizimining asosiy maqsadi nafaqat byudjetni daromadlar bilan to‘ldirish balki, tadbirkorlar faoliyatiga to‘siq bo‘lmasligi va ijtimoiyadolatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sон farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellashtirish. Monografiya. –T.: “Fan”, 2014. - 106 b.
5. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho’lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
6. Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 223 С.
7. Сердюков А.Э., Вылкова Е.С, Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2008. - 502. С
8. Евстигнеев Е.Н. Основы налогового планирования. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2004. – 196C.

9. Тихонов Д.Н., Липник Л.Г. Налоговое планирование и оптимизатсія налоговых рисков. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. – 105 С.
10. Козенкова Т.А. Налоговое планирование на предприятии. – М.: АиН, 1999. – С. 15.
11. Филин С.А. Финансовый риск и его составляющие для обеспечения процесса оценки и эффективного управления финансовыми рисками при принятии финансовых управленческих решений // Финансы и кредит. 2002. №3. С.21-31; №4. С. 9-23.
12. Кирина Л.С. Международный опыт осуществления мониторинга налоговых рисков налоговыми органами. Экономика. Налоги. Право. - М. 2012. С. 130-133.
13. Avstraliya soliq boshqarmasi materiallari - <http://www.ato.gov.au>
14. Buyuk Britaniya soliq xizmati materiallari - <http://www.inglandrevenue.gov.uk>
15. Germaniya federativ respublikasining moliya bo'yicha federal idorasi materiallari - <http://www.bff-online.de> \
16. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotlari - <http://www.oecd.org>
17. Ispaniya soliq agentligi materiallari - <http://www.aeat.es>
18. Kanada bojxona va soliq agentligi materiallari - <http://www.ccra-adrc.gc.ca>
19. AQSh ichki daromadlari xizmatining materiallari - <http://www.irs.ustreas.gov>
20. Fransiya soliq bosh boshqarmasining materiallari - <http://www.finances.gouv.fr/DGI>
21. Shvesiya davlat soliq boshqarmasining materiallari - <http://www.rsv.se>
22. Бухгалтерија. Обща бухгалтерија. Бухучёт и налогообложение. Налоговые ошибки. – www.klerk.ru
23. Samariddin Elmırzaev. Tax Risk Assessment and Management in Private Sector: Evidence from Uzbekistan. // European Journal of Business and Management, Vol.7, No.29, 2015
24. Z.O.Axrорov, Sh.O.Shermamatov. Soliq munosabatlarini tartibga solish sharoitida soliq risklarini boshqarish yo'llari. // "Servis" ilmiy-amaliy jurnal, 1-son, 2020 yil.
25. Mamadaminov Nazar Yusupovich. Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalı. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil. – 9 bet.
26. Elmırzaev, S. E. (2017). Improving tax relations in corporate finance management. Abstract of dissertation in economic sciences. Tashkent.
27. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
28. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi
29. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
30. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti